

INKLYUZIV TA'LIMDA TARBIYA TURLARINI QO'LLANILISHI

*Sirojiddinova Mushtariy Omadbek qizi
Madaminova Odinaxon Muqimjon qizi
Kokand universiteti Andijon filiali
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari*

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida tarbiya turlarining qo'llanilish samaradorligi tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim — imkoniyati cheklangan bolalar va sog'lom bolalarning umumiy ta'lim tizimida teng huquqli ta'lim olishini ta'minlovchi tizim bo'lib, uning muvaffaqiyati samarali tarbiya usullarini qo'llash bilan bevosita bog'liqdir. Maqolada ijtimoiy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya turlarining inklyuziv ta'lim muhitida o'rni va ularning bolalarning rivojlanishiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimida tarbiyaning individual yondashuvlar asosida amalga oshirilishi va bu borada samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Annotation: This article analyzes the effectiveness of various types of education in the process of inclusive education. Inclusive education is a system that ensures equal educational opportunities for children with disabilities and typically developing students within the general education framework. The success of this approach is directly linked to the application of effective educational methods. The article examines the role of social, moral, aesthetic, and physical education in an inclusive learning environment and their impact on children's development. Additionally, the article provides recommendations for enhancing the effectiveness of education through individualized approaches in inclusive education.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность применения различных видов воспитания в процессе инклюзивного образования. Инклюзивное образование — это система, обеспечивающая равные права на обучение для детей с ограниченными возможностями и здоровых учащихся в общей системе образования, и его успешность непосредственно связана с применением эффективных методов воспитания. В статье рассматривается роль социальных, нравственных, эстетических и физических видов воспитания в инклюзивной образовательной среде, а также их влияние на развитие детей. Кроме того, в работе даются рекомендации по повышению эффективности воспитания на основе индивидуального подхода в инклюзивном образовании.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, tarbiya turlari, axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, huquqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, inklyuziv pedagogika, individual yondashuv, maxsus pedagogik metodlar, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, ta'lim samaradorligi.

Keywords: inclusive education, types of upbringing, moral education, intellectual education, physical education, aesthetic education, labor education, pedagogical technologies, individual approach, effectiveness.

Ключевые слова: инклюзивное образование, виды воспитания, нравственное воспитание, духовное воспитание, физическое воспитание, эстетическое воспитание, трудовое воспитание, правовое воспитание, патриотическое воспитание, инклюзивная педагогика, индивидуальный подход, специальные педагогические методы, психологическая поддержка, социальная адаптация, эффективность образования.

Tarbiya- arabcha so‘zdan olingan bolib, parvarish qilmoq, ta’lim bermoq, o‘rganish, odob o‘rgarish, mehribonlik ko‘rsatish, himoya qilish singari ma’nolarni anglatadi.

Tarbiya deb - tarbiyachi o‘zi hohlagan sifatlarini tarbiyalanuvchilarning ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko‘ra tizimli ta’sir ko‘rsatishiga aytildi. Tarbiya bola tug‘ilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Tarbiya-biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doim muayyan rejaga ega bo‘ladi va buning uchun maxsus vakolatga ega bo‘lgan kishilar tomonidan amalgalashiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi-malakasi, xatti-harakatlari, yo‘nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqlol vazifalari bilan uyg‘unlashtirib shakillantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O‘z oldiga inson kuchli, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo‘lgan muayyan maqsadlarni qo‘ygan davlatlar ham ta’lim-tarbiya ishlariiga befarq qaramagan. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, jumladan, nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bor bolalar uchun teng ta’lim olish imkoniyatini yaratadigan tizim. Bu yondashuv har bir bolaning imkoniyatlarini inobatga olib, uni umumiylashtirishga o‘qitishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim bolalarning bir-biridan ajralmasligi, ularning jamiyatga to‘liq qo‘silishi va o‘z salohiyatini ochishiga yordam beradi.

Bu ta’lim shakli barcha bolalar uchun foydali. Nogironligi bor bolalar jamiyatga yaxshiroq moslashadi, sog‘lom bolalar esa bag‘rikenglik, mehribonlik va tushunish kabi sifatlarni o‘rganadi. O‘qituvchilar esa har xil ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishslash bo‘yicha yangi metodlarni qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi. Inklyuziv ta’limda muammolar ham bor. Maxsus o‘quv materiallari yetishmovchiligi, o‘qituvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi va jamiyatdagi ayrim noto‘g‘ri qarashlar bunga to‘siq bo‘lishi mumkin. Ammo maxsus dasturlar, malaka oshirish kurslari va jamiyatda tushuntirish ishlari olib borilsa, bu muammolarni hal qilish mumkin. Inklyuziv ta’lim har bir bolaning o‘qish va rivojlanish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi. Barcha bolalar birga o‘qisa, jamiyat yanada adolatli va rivojlangan bo‘ladi.

Inklyuziv ta’limda tarbiya bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Aqliy tarbiya bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilim olishiga yordam beradi. Axloqiy tarbiya esa odob, hurmat, halollik va mehribonlik kabi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya bolalarning sog‘lom turmush tarziga o‘rganishiga yordam beradi, nogironligi bor bolalar uchun esa maxsus mashqlar ishlab chiqiladi. Mehnat tarbiyasi bolalarga foydali mehnat ko‘nikmalarini o‘rgatadi va ularni mustaqil hayotga tayyorlaydi. Estetik tarbiya san’at, musiqa va adabiyotga bo‘lgan qiziqishni oshirib, go‘zallikni tushunishga o‘rgatadi. Ijtimoiy tarbiya esa bolalarni jamiyatga moslashishga, boshqalar bilan muloqot qilishga va jamoada ishlashga o‘rgatadi. Inklyuziv ta’limda bu barcha tarbiya turlari bolalarning ehtiyoj va imkoniyatlariga qarab moslashtiriladi, bu esa ularning jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishiga yordam beradi. Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi) lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakillana boradi, xis-tuyg‘ulari rivojlanadi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda boladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va hohishlarini ifodalaydi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki, his tuyg‘ularini ham o‘shtira borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayoni asosida) hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari o‘qish ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqini iroda qilish jarayonida) sistemali va muntazam ta’sir etib boriladi. O‘quvchini tarbiyalashda bularning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Inklyuziv ta’limda o‘quvchilarni moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatga, kasbni asosli tarzda tanlashiga o‘qituvchilar, tarbiyachilar, o‘quvchilar va ota-onalar tomonidan chuqur anglab olinishi kerak. Ba’zan tarbiyaning turmush bilan bog‘liqligini tarbiyaviy ish hamda inklyuziv maktab o‘quvchilarining unumli mehnati o‘rtasida aloqa o‘rnatishdangina iborat deb qaraladi. Ammo hayot unumli mehnatga qaraganda ancha kengroq va mazmuniroq tushunchadir. Inklyuziv maktab o‘quvchilarining mehnat faoliyatining xilma-xil shakillariga jalb etayotganda bu narsa insonni jamiyatga xizmat qilish, o‘z hayoti farovonligini ta’minalash, moddiy va ma’naviy mo‘l-ko‘llikka erishish kabi maqsadlarni ta’minalashga zamin akanligini tushuntirish kerak. Qilinayotgan barcha tarbiyaviy tadbirlar hayotiy, yani rivojlanishida muammozi bo‘lgan bolalar eshitgan, ko‘rgan narsalarga asoslangan tarzda olib borilsa, yaxshi samara beradi. Aks xolda o‘tkazilgan tadbirlar bolalar uchun tushunarsiz narsa bo‘lib qolishi mumkin. Inklyuziv maktab o‘quvchilarini jamoada jamoa orqali va jamoa uchun tarbiyalash prinsipi ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu prinsip tarbiya tizimining jamiyat talablaridan kelib chiqadigan prinsiplaridan biri bo‘lib, uning tabiatи ishlab chiqarish

vositalariga mumosabat, o'rtoqlarcha hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlari bilan xarakterlanadi. Inklyuziv ta'limda tarbiya usullarining qo'llanish samaradorligi va harakatlantiruvchi kuchlari, rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning individual-tipologik xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajasi bilan, bola yashayotgan muayyan muhit vaziyatning tabiati bilan qanchalik hisoblashishiga ham bog'liq. Inklyuziv maktab o'quvchilarida dunyoqarash va e'tiqodlar tizmini shakllantirish maqsadida ularning ongi, xis-tuyg'usi va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullari ham tarbiya usullariga kiradi. Bu toifadagi usullarning mohiyati shundan iboratki, ularning vositasi bilan jamiyat yosh avlodga nisbatan qo'llayotgan talablar bola ongiga yetkaziladi. Inklyuziv maktab o'quvchilari bilan amaliy ishslashda tarbiya usullaridan foydalanish ko'nikmalari va malakalarini o'rganish va hosil qilish qulay bo'lishi uchun ularni shartli ravishda bir nechta guruhga birlashtirish mumkin.

Inklyuziv ta'limda tarbiya – bu har bir bolaning jismoniy, aqliy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tizimli jarayondir. Bu ta'lim shaklida barcha bolalar, jumladan, nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bor bolalar ham, umumiy ta'lim muhitida o'z salohiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tarbiyaning quyidagi turlari inklyuziv ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Axloqiy tarbiya – Bu bolalarda insoniy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ulargaadolat, bag'rikenglik, hurmat, mehribonlik va halollik kabi qadriyatlarni singdiradi. Inklyuziv muhitda axloqiy tarbiya ayniqsa muhim, chunki turli imkoniyatlarga ega bolalar birqalikda o'qib, bir-birini tushunishni o'rganadilar. Aqliy tarbiya – Bu bolaning bilim olish qobiliyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayoni. Inklyuziv ta'lim sharoitida har bir bola o'z ehtiyojlariga mos keladigan o'quv usullari orqali bilim olishi kerak. Bu jarayonda o'qituvchilar moslashtirilgan o'qitish usullaridan foydalanib, har bir bolaga individual yondashadilar. Jismoniy tarbiya – Har bir bolaning jismoniy rivojlanishiga e'tibor qaratish inklyuziv ta'limning muhim jihatlaridan biridir. Bu tarbiya turi nafaqat umumiy jismoniy mashg'ulotlar, balki maxsus ehtiyojli bolalar uchun individual jismoniy rivojlanish dasturlarini ham o'z ichiga oladi. Bu orqali bolalar harakat faolligini saqlab qolish, o'z tanasini boshqarish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mehnat tarbiysi – Bolalarga o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli mehnat faoliyatlariga jalb etish va kasbga yo'naltirish bu tarbiya turining asosiy vazifasidir. Inklyuziv ta'limda mehnat tarbiysi har bir bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlashga qaratilgan. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun maxsus kasbiy tayyorgarlik dasturlari ham ishlab chiqiladi. Estetik tarbiya – Bu bolalarning san'at, adabiyot, musiqa va madaniyatga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim muhitida estetik tarbiya nafaqat ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, balki turli madaniy va san'at yo'nalishlarida o'z ifodasini topish imkoniyatini beradi. Har bir bola o'z didi va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun san'atga jalb qilinadi.

Ijtimoiy tarbiya – Bu bolalarning jamiyat bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, jamoa bilan ishlash, ijtimoiy normalar va qoidalarga riosa qilishni o‘rgatish jarayonidir. Inklyuziv muhitda har xil ehtiyojlarga ega bolalar bir-biri bilan muloqot qilib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga o‘rganadilar. Ekologik tarbiya – Bu bolalarning tabiatga nisbatan hurmat va ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lishini shakllantirishga qaratilgan. Inklyuziv ta’limda ekologik tarbiya maxsus ehtiyojli bolalar uchun ham moslashtirilgan usullarda olib boriladi, shu orqali ularga atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tushunchalar beriladi. Umuman olganda, inklyuziv ta’limda tarbiya har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Bu jarayon ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligini ta’minlab, barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA: Inklyuziv ta’limda tarbiya turlarining samaradorligi har bir bolaning ehtiyojlariga mos yondashilgan taqdirda yuqori bo‘ladi. Axloqiy tarbiya bolalarda hurmat, bag‘rikenglik va insonparvarlikni shakllantirib, ularning jamiyatga moslashuvini osonlashtiradi. Aqliy tarbiya o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlab, mustaqil fikrlesh va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Jismoniy tarbiya esa har bir bolaning sog‘lig‘ini mustahkamlash va harakat faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mehnat tarbiyasi bolalarni kelajak kasbiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etib, ularning mustaqil mehnat qilish qobiliyatini oshiradi. Estetik tarbiya orqali o‘quvchilar san’at va madaniyatga qiziqib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ijtimoiy tarbiya esa bolalarning muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va jamoada o‘z o‘rnini topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ekologik tarbiya esa o‘quvchilarning tabiatga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lishiga va ekologik mas’uliyatni his qilishiga yordam beradi. Inklyuziv ta’lim muhitida tarbiyaning barcha turlari uyg‘un qo‘llanilganda, har bir bola o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila oladi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashadi. Shu sababli, inklyuziv ta’limda tarbiyaviy faoliyatni tizimli, individual va innovatsion yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Inklyuziv ta’lim nazariyasi va amaliyoti. "Yangi chirchiq book" Chirchiq-2022.
- 2.P.M.Po‘latova.L.Sh.Nurmuhammedova,D.B.Yakubjonova,
Z.N.Mamarajabova, Ah.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. Maxsus pedagogika Toshkent-2014
- 3.Rahmonova Gullola Shavkatovna, Hakimova Nargiza Supxonovna Umumiy pedagogika Buxoro-2022